

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



Tarix-geografiya fakulteti

Geografiya o`qitish metodikasi kafedrasи

**5110500 - Geografiya o`qitish metodikasi bakalavr ta`lim
yo`nalishining 4-b kurs talabasi**

KAZBEKOV URAZMAXAMBET KALMURATOVICHNING

BITIRUV MALAKA VIY ISHI

**Mavzu: «Geografiya darslarida qiziqarli dars shakllari va ulardan
foydalananish uslublari»**

Talaba:

Kazbekov U.K.

Ilmiy rahbar:

Abdiramanov J.B.

Kafedra mudiri v.v.b:

Abdiramanov J.B.

**Kafedra majlisining 2018-yil 30 - may sanasidagi
№ 10 ish qog`ozи bilan ximoyaga ruxsat berildi**

Nukus-2018

Mundarija

KIRISH.....	2-5
I-BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QIZIQARLI DARS SHAKLLARIDAN FOYDALANISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING MAZMUNI, MOHIYATI, TASNIFI VA TURLARI.....	6-23
1.1. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari, bosqichlari, yo‘nalishlari, maqsadi va o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.....	6-14
1.2. Pedagogik texnologiyalarning tasnifi, turlari va metodlari.....	14-23
2-BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QIZIQARLI DARS SHAKLLARI VA ULARDAN FOYDALANISHDA DIDAKTIK O`YINLARNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI.....	24-48
2.1. Didaktik o`yinlarning pedagogik, psixologik va metodik asoslari....	24-32
2.2. Geografiya ta`limida o`quvchilardagi ijodiy fikrlashning rivojlantirish jahhalari.....	32-34
2.3. Geografiya darslarida situatsion-o`yinli metodlardan foydalanishning pedagogik-psxologik omillari.....	34-36
2.4. Geografiya darslarida didaktik o`yin elementlaridan foydalanish uslublari va texnologiyasi.....	37-48
HULOSA.....	49-50
Hayot faoliyati havfsizligi va favqulotda vaziyatlarida fuqoralarni muhofaza qilish.....	51-56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	57

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasida yoshlar ta`limi va tarbiyasiga alohida e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan 2017—2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasining - jismonan sog`lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat`iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish alohida vazifa qilib ko`rsatilgan.

Shundan kelib chiqqan holda xalq ta`limi xodimlarining asosiy vazifasi mustaqil O`zbekistonning munosib farzandlarini tarbiyalash, aniqrog`i bilimdon, vatanparvar, milliy iftixor tuyg`ulari jo`sish urib turgan bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko`rsata oladigan yangi avlodni kamol toptirishdir. Zero Birinchi Prezidentimiz, ardoqli davlat arbobi I.A.Karimovning "Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart" deb ta`kidlagan iboralarini amalga oshirish uchun turli jabhalarda, jumladan geografiya ta`limida ham ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etiladi.

BMIning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv-malakaviy ishning maqsadi yoshlarni o`qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko`p jihatdan o`qituvchining g`oyaviy e`tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, kasbiy madaniyatiga boqliqdir. Totalitar tuzumdan qolgan bir qolipa solingan an`anaviy dars o`tish uslublari bugunga kelib o`zini oqlamay qo`ydi. Bugungi o`quvchilar o`qituvchining bir soatlik darsini har bir soniyasida yangilik kutmoqdalar. Dars o`tishning yangi pedagogik texnologiyasini hayotga kirib kelishi ham aynan shundandir. Bu narsani bizdan sal oldinroq xorij pedagoglari anglab etdilar va bugunga kelib ular shu yo`nalishdagi o`z maktablarini yaratdilar. Zamonaviy pedagog o`quvchiga ta`sir etishi, unda davlat ta`lim standarti asosida bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish, uning istaklarini, e`tiqodini,

qiziqishi va imkoniyatlarini bilishi kerak. Demak, zamonaviy maktabga yuksak ma`lumotli, faol, izlanuvchan, ustoz-pedagog kerak.

Hammamizga malumki, jamiyatimiz doimo taraqqiyot etadi. Buning uchun esa yangicha bilim berish, o`zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq, tanqidiy ijodiy faoliyat bilan shug`ullana olish ko`nikmalarini tarkib topgan bo`lishi lozim. Demak, tarbiya yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlashda, u mavjud jamiyat imkoniyatlarini shakllantirish, yanada rivojlantirish maqsadida keksa avlod tomonidan orttirilgan tarixiy tajribani to`ldirilgan, yanada mukammallashtirilgan holda yosh avlodga singdiradi.

Ta`lim-tarbiya mohiyatini saqlanayotgan holda shu bilan bиргаликда, o`qituvchi o`z ish faoliyatida usullar, vositalar va shakllarni o`zgargan sharoitlarda yangilashga majburdir, chunki yangi davr unga doimo yangi talab qo`yadi.

Bu tizimni yanada takomillashtirish uchun biz uning tarkibini va tarkibiy qismlarini chuqur o`rganishimiz hamda bu tizimda pedtexnologiyaning o`rnini aniqlashimiz zarur.

Dars samaradorligini ta`minlash uchun turli ta`lim vositalaridan foydalanishga, darslarda muammoli vaziyat vujudga keltirishga xizmat qiluvchi didaktik o`yinlarning imkoniyatlari beqiyosdir.

BMIning tadqiqot ob`ekti va predmeti. BMIning tadqiqot ob`ekti sifatida Geografiya darslarida o`rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab tashkil etiladigan didaktik o`yinlarni foydalanish uslublari jarayoni tanlandi. Ishning predmeti esa mazkur mavzuni o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari, vositalari va metodlari, ularni o`qitishning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko`rsatib berish hamda mavzu bo`yicha dars ishlanmalari tayyorlash hisoblanadi. BMIda pedagogik amaliyot davrida o`tkazilgan kuzatish, pedagogik eksperiment, taqqoslash kabi metodik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Geografiya darslarida o`rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab tashkil etiladigan didaktik o`yinlar o`quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga undaydi, ularda darsga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Bu esa bilimlarni puxta o`zlashtirish garovidir. Bu holat ushbu ishning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Geografiya darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish uslublari P.Musaev, R.Qurban niyozov (1990), O.Mo`minov (1990) L.Kartel` (1991), M.Abduraxmonov (1992) ishlarida, shuningdek, "SOROS" ochiq jamiyatni instituti loyi halarida yoritib berilgan. Men pedagogik amaliyotim davomida qo`llab kelgan qiziqarli geografik o‘yinlar va ularning amaliy ahamiyatini tahlil qilib, bu uslub o`quvchilar uchun qiziqarli ekanligi, ularning o`zlashtirishlariga ijobiy yordam bergenligini anglab etdim va shu asosda bitiruv-malkaviy ishim mavzusini yoritish uchun bir qator materiallar yig`ishga muvaffaq bo`ldim.

BMIning tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalaniqan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. BMIning matn qismi 50 betdan iborat bo‘lib, mavzuga oid jadval, sxema va rasmlar keltirilgan.

Men ushbu bitiruv-malakaviy ishimni yozishda o`zining maslahatlari bilan yaqindan yordam bergen ilmiy rahbarim J. Abdiramanovga va kafedraning o`qituvchilariga o`z minnatdorchiligidagi bildiraman.

**I-BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QIZIQARLI DARS
SHAKLLARIDAN FOYDALANISHDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNING MAZMUNI, MOHIYATI, TASNIFI VA
TURLARI**

**1.1. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari, bosqichlari,
yo‘nalishlari, maqsadi va o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati**

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini qisqa vaqt ichida baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o`zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo`liga o`tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g`oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko`zda tutmoqdamiz. Ya`ni O`zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo`lishi shart” deb ko`rsatgan edi.

Bu muhim vazifani amalga oshirish ta’lim muassasalarida o‘qitishning an’anaviy metodlarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan qo‘sib olib borishni taqozo etmoqda.

Pedagogik texnologiya - barcha boshqariluvchi tashkiliy qismlar va ularning bog‘liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo‘li bilan pedagogik samaradorlikni yuqori darajaga ko‘tarish hamda bu borada tizimli yondashuvni joriy etishni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida XXI asrda davlatimiz ta’lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, talabalarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muxabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllanadi.

Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga XX asrning 2-yarmida kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan-**texnos** (technt)- san’at, hunar, mahorat va **logos** (logos) - fan, ta’limot so‘zlaridan tashkil topib, hunar fani ma’nosini anglatadi.

«Pedagogik texnologiya» iborasi fanga birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha, pedagogik texnologiya o‘qitishning maqbulligini ta’minlovchi yo‘l-yo‘riqlar tizimi bilan bog‘liq bilimlar sohasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o‘quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat deb hisoblaydi.

Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. YAnada aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat ob’ektlariga bosqichma-bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. “Pedagogik texnologiya” so‘z birligi esa inglizcha “**an educational technology**” – “**ta’lim texnologiyasi**” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasi bo‘lib, ta’lim (o‘qitish) jarayonini yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etish borasida ma’lumotlar beruvchi ta’limot ma’nosini anglatadi.

Ta’lim texnologiyasining juda ko‘p ta’riflari mavjud. SHulardan eng maqbولي va jahon pedagoglari tomonidan e’tirof etilgani YUNESKO tomonidan quyidagicha berilgan ta’rifdir:

“Ta’lim texnologiyasi”–ta’lim olish shakllarini maqbullashtirishni o‘z vazifalari deb qo‘yuvchi, ya’ni butun ta’lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda, bilimlarni o‘zlashtirish, ularning o‘zaro harakatini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usulidir”.

Pedagogik texnologiya esa – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida talaba-o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatish va

bu faoliyat mahsuli sifatida ularda belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Hozirgi kundagi pedagogik nashrlarda texnologiya atamasini xilma xil talqin etilishi holatini kuzatish mumkin: o‘qitish texnologiyasi, o‘quv jarayoni texnologiyasi, ma’lumot texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi vaboshqalar. O‘qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo‘lsada, aynan o‘xshash ma’noni anglatadi, chunki u ma’lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o‘quv materiallarini o‘zlashtirish yo‘lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi.

Ko’rinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilangan boshlang‘ich maqsad va mazmun asosida o‘quv jarayonini loyihalash sifatida tashkil etilgan. Bu bir jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa, chuqurroq tahlil etilganda, bir yoqlamalik aniqlanadi yoki bunday yondashuvda talaba shaxsi e’tibordan chetda qolmoqda. Bu holatni yoki kamchilikni akademik V.P.Bespalko aniqladi va “pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘limgan holda, pedagogik muvaffaqiyatini kafolatlay oladigan, o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir”- deb ta’riflaydi. Bu ta’rif asosida quyidagi ilmiy tamoyillarni ko‘rsatish mumkin:

- pedagogik texnologiya talabalarda ma’lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o‘qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;

- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini aniqlashga qaratilgan ta’riflarning xilmalligi rivojlangan mamlakatlarda bu masalani u yoki bu darajada xal etilganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan pedagogik texnologiyani amaliyotga joriy etishga bo‘lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiya to‘g‘risidagi tushunchalarni rivojlanish tarixi nuqtai nazaridan qaralsa, pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyotini bir biriga bog‘liq bo‘limgan holda talqin etilganligini ko‘ramiz. Natijada o‘qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o‘quvchi-talabalarning bilim faoliyatini rivojlantirishga

qaratilgan u yoki bu ilg‘or metodikalar texnologiya darajasiga ko‘tarila olmay asta sekinlik bilan o‘z mavqeini yo‘qotib, pedagogika nazariyasidan uzoqlashib borgan. Masalan 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo‘lgan “Dasturli ta’lim” yoki 70-80-yillardagi “shatalovchilik harakati” kabilar.

Pedagogik texnologiyani pedagogik fanning alohida tarmog‘i sifatida yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishi deb, qarash ham m’qul emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatini aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyaga “yangi” so‘zini qo‘shib qo‘llanilishi – bu ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Demak, ta’lim - tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi ro‘y bermoqda, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. YAngi metodikalarni talab etadigan va unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantiradi.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzuliksiz boyib boradi va an’anaviy o‘quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta’sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. YAngilanayotgan ta’lim tizimida yakuniy natija, xoxlaymizmi, xohlamaymizmi, bevosita ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan o‘qituvchi mehnatining qanday tashkil etilishiga borib taqalaveradi. Bu vazifani xal qilish uchun yoshlarni hayotga, mehnatga tayyorlashning yangi texnologiyasi, metod, usul, vositalardan foydalanish lozim bo‘ladi. Ta’lim zimmasiga qo‘yilayotgan ulkan vazifalar esa ta’lim berishga munosabatni, yondoshuvni o‘zgartirishni taqozo etmoqda. Pedagogikaga oid ilmiy adabiyotlarda va maqolalarda aynan shu munosabat va yondoshuvni o‘zida mujassam etishi lozim bo‘lgan yangi pedagogik texnologiya xususida bir qancha maqsadlar e’lon qilindi. Biroq, hozirgi kundagi islohotlar jadalligi mavjud nazariyani tezroq amaliyotga tadbiq etishni talab etadi.

Yangi texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko'rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ularni pedagogik texnologiya tamoyillari (tamoyillari) deb atash mumkin.

Tamoyil yoki prinsip – yunoncha - "princip" so‘zidan olingan bo‘lib, "asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g‘oya, umumlashgan talab" kabi ma’nolarni anglatadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari deganda, loyihalangan o‘quv -tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishga yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiylar, me’yorlar, qoidalar va talablarni tushuniladi. Demak, u yoki bu pedagogik hodisa tamoyil bo‘lishi mumkin, qachonki uni o‘quv jarayonida hisobga olish (rioya qilish) zarur bo‘lsa, ya’ni unga tayanilsa.

Pedagogik texnologiya tamoyillari didaktik tamoyillardan tubdan farq qiladi va o‘zida muhim sifat ko‘rsatkichlarini mujassamlashtiradi. Aslida ham ta’lim amaliyotida pedagogik texnologiyaning moddiy vositalari – kitoblardan, texnik jihozlardan va o‘qitish metodlaridan ko‘pdan buyon foydalanib kelinadi yoki oldindan rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchi faoliyati orqali amaliyotga joriy etilmoqda.

SHu bilan birgalikda pedagogik texnologiya - bu qotib qolgan, siquvga olingan loyiha emas, balki ta’lim va tarbiya samaradorligini belgilovchi qator omillarni baholash imkonini bera oladigan ijodkorlik, yaratuvchilik, fidoyilik faoliyati natijasidir.

N.Sayidahmedov tomonidan pedagogik texnologiya tamoyillarini aniqlashda quyidagi holatlar e’tiborga olinadi:


- 1) mavjud jamiyat talablariga mos keladigan ta’lim-tarbiya maqsadi;
- 2) didaktik jarayonning ob’ektiv qonuniyatları;
- 3) ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan shart - sharoitlar.

Shu nuqtai nazardan yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llashni quyidagi tamoyillari mavjud (1.1-sxema).

1. Yaxlitlik tamoyili texnologiya loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishini va o‘zaro bog‘liqligini e’tiborga olishni taqozo etadi;
2. Pedagogik texnologiya o‘quv-tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani auditoriyada amalga oshirishni ko‘zda tutadi;
3. Yakuniy natijaning kafolatlanishi pedagogik texnologiyaning yana bir muhim tamoyilidir, hamda "YAKUNIY NATIJA QAYSI SATXDA BO‘LISHI KERAK?" savolga javob beradi.
4. Pedagogik texnologiyaning juda muhim tamoyili: o‘qitishning tugallanganlik tamoyili javob beradi.

YUqorida biz pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillarini yoritishga harakat qildik. Ular, birinchi galda, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda ko‘rishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni amalda ijod bilan qo‘llash zarur.

1-sxema. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari.




Xulosa qilib aytganda, yangi ta’lim tizimi, mazmuni, o‘quv reja, darsliklar asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondoshish va tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev alohida ta'kidlaganlaridek, "...biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'nnaviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak". SHu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi - ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Ta'lim texnologiyasi quyidagi uch bosqichdan iborat, ko'plab jarayonlarni qamrab oladi (2-sxema)

2-sxema. Ta'lim texnologiyasi bosqichlari.



I. Loyihalashtirish - mo'ljallangan maqsad va uni amalga oshirish usuli va vositalari yig'indisini aniqlashdan iborat. Bu blok doirasida quyidagi ketma-ketlikda jarayonlar amalga oshiriladi:

- ta'lim texnologiyasini amalga oshirish vaqtini aniqlash; o'quv choragi, yarim yilligi, yillik va butun o'qitish davri uchun;
- o'quv materiallarini tahlil etish;
- maqsad va didaktik vazifalarni ajratib olish;

- o‘quv materiallarini ma’lum tuzilmaga keltirish va vaqt bo‘yicha taqsimlash;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish bosqichlari, shuningdek, shaxsnинг sifat va fazilatlarini rivojlantirishni aniqlab olish;
- talabalarni qiziqtirish usuli va vositalarini aniqlash.

O‘quv materiallarini takrorlash, joriy ko‘rsatmalar berish, talabalar diqqat-e’tiborini o‘quv materiallarining muhim tomonlariga jalb etish maqsadida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, qiziqarli bilish vazifalari va shu kabilarni oldindan belgilab olish. Ular oldindan belgilangan va maqsadga etaklovchi vosita sifatida qaralmog‘i lozim. Bunday yondashuv tahsil oluvchiga o‘z o‘quv - bilish faoliyatining tuzilmasi va mazmunini tasavvur ettirish imkonini beradi.

Rejalashtirilgan natijalar haqida tasavvur tarkib toptirish quyidagi shakllarda rasmiylashtiriladi: Bilim, ko‘nikma, ish - harakat usuli, muhim yo‘nalganlik, ijtimoiy muhim shaxsiy sifat va fazilatlari va boshqa yoki kutilgan natijalar yozilmasi.

Ko‘rsatiladigan quollar va pedagogik texnologiyalar o‘quv materiallariga, talabalarning shaxsiy kobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uyg‘un bo‘lishi kerak. SHuningdek, ta’lim muassasasining modiy ba’zasi hisobga olinishi lozim.

Ta’lim texnologiyasini amalga oshirish uchun ehtimoldan holi bo‘lmagan va unga xalaqit beruvchi omillar tashqi muhit va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘ylab ko‘riladi.

II. Ta’lim loyihasini amalga oshirishda quyidagi ishlarga aloxida e’tibor qaratiladi:

- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha maqsad, vazifalar bilan talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, etalon darajasida o‘zlashtirish me’yorlarini aytib berish;

- talabalarning faol, mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish, bolalar diqqatini bo‘lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o‘rganish zarurligini aytib,

bilishga qiziqish uyg‘otish, o‘qish-o‘rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg‘otish. Emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o‘quv holatlariga tadbiq etish yo‘llari orqali mavzu bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga oid o‘zgartirish, qo‘srimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha to‘plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta’lim jarayonida kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o‘rganilgan natijalarga asoslanib, loyihaga yangi o‘zgartirish, qo‘srimcha, tuzatishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga qanchalik yaqinlashganliklari ham aytib o‘tiladi;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha umumiylar xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish.

- oraliq nazorat natijalariga ko‘ra, mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, talabalarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarni ko‘rsatish, sinfning har bir talabasiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo‘srimcha topshiriqlar berish, bolalarni o‘quv materialllarini yanada atroflicha etalon darajasida o‘zlashtirishga rag‘batlantirish;

-yakuniy nazoratning asosiy funksiyasi bolalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o‘zlashtirgan talabalarni ogohlantirish, qo‘srimcha topshiriqlar berish.

III. Nazorat qilish va baholashning vazifasi qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishning borishi haqida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazish, ya’ni muntazam ravishda teskari aloqani ta’min etish va axborotga qayta ishlov berishdan iborat. Olingan axborotni tahlil qilib, zarur hollarda kelgusida harakatlarga o‘zgartirishlar kiritiladi va nixoyat, qo‘yilgan maqsad va olingan natijalarning mosligi haqida xulosa chiqariladi.

Ta’lim maqsadlarini, baholash mezonlarini hamda ta’lim sharoitlarini takroriy hosil qilishdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta’lim - tarbiya jarayonini

tarbiyaviy omillarga ham texnologik jarayonni keng tadbiq etish mumkin. Bu jihatdan “pedagogik texnologiya” ta’lim va tarbiya o’rtasidagi farqni qisqartiradi.

Kelajak bugungi yoshlar qo‘lida ekan, avvalo, ular i’stedodini aniqlash, qobilyat iqtidorini rivojlantirish, intellektual zakovati, ma’naviy aqliy salohiyatini yuksaltirish dolzarb masala bo‘lib xisoblanadi.

1.2. Pedagogik texnologiyalarning tasnifi, turlari va metodlari.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, amaliyotga yangi o‘quv reja, davlat ta’lim standartlari va dasturlar, darsliklarning yangi avlodlari taqdim etildi. Shularning davomi sifatida, bugun ta’lim sohasi mas’ullari oldida turgan dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiyalar asosida, innovatsion yondashuvlar orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat.

Ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining yangi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, jumladan o‘qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, uning uchun tegishli ma’lumotlarni o‘rganishi, tahlil qilishi va umumlashtirishi, amaliyotda qo‘llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Pedagogik texnologiyalar quyidagicha tasniflanadi:

Qo‘llanilish darajasiga ko‘ra, pedagogik texnologiyalar umumpedagogik, xususiy metodik (predmetlar) va lokal (modulli)ga bo‘linadi.

Falsafiy asosiga ko‘ra, materialistik, idealistik, dialektik va metofizik, ilmiy va diniy, gumanistik va antigumanistik hamda erkin tarbiya va majburiy texnologiyalardan iborat.


Psixik rivojlanishning etakchi omili bo‘yicha pedagogik texnologiyalar biogen, sotsiogen, psixogen va idealistik texnologiyalardan iborat. Ma’lumki shaxs biogen, sotsiogen, psixogen, faktorlar to‘plami ta’sirida shakllanadi, biroq aniq texnologiya ulardan birini olishi mumkin.

Tajribani o‘zlashtirish ilmiy konsepsiysi bo‘yicha - assosatsiativ reflektorli va rivojlanuvchi texnologiyalarga bo‘linadi.

Shaxsiy hususiyatlarga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar - axborot texnologiyalarini (bilim, o‘quv, malakalarni) shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi.


Aqliy faoliyat operatsiyalari - ruhiy-badiiy va ruhiy-ahloqiy, o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyasi hamda evristik (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish) va amaliy texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

3.-sxema. Ta’lim texnologiyalari turlari



Pedagogik texnologiyalar **mazmun** va **tuzulishiga ko‘ra** quyidagilarga - o‘rgatuvchi va tarbiyalovchi, dunyoviy va diniy, umumta’lim va kasbiy ta’limga yo‘naltirish, ijtimoiy, turli tarmoqli, hususiy predmetli, politexnologiyalar, monotexnologiyalar va kirib boruvchi texnologiyalar ajratiladi.

4-sxema. Ta’lim jarayonida keng qo’llanilayotgan texnologiyalar turlari



Bugungi kunda ta’lim texnologiyalarini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim amaliyoti va nazariyasi ilmida mustahkam o‘rin egalladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida keng qo‘llanilayotgan yangi pedtexnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin (1.4-sxema.)

I. Modulli yoki lokal ta’lim texnologiyasi - shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasidir. Modulli ta’lim dunyo tajribasida qo‘llanilib kelayotgan (Buyuk Britaniya, Gollandiya, AQSH, Rossiya) ta’limning samarali shaklidir.

Modul lotincha «modulus» so‘zidan olingan bo‘lib me‘yor, o‘lchov degan ma‘noni anglatadi. Ta’limda modul o‘rganilayotgan predmetni ma‘lum qismlarga bo‘lib, uni o‘rganishning aniq tizimini yaratadi.

1.Bo‘limni o‘rganishdan oldin o‘quvchilar bilan materialni o‘rganish istiqbol rejasini muxokama qilinadi, mavular ketma-ketligi, har bir mavzu bo‘yicha darslar soni, dars shakllarini aniqlanadi. Har bir o‘quvchi individual ish uchun modul qo‘llanmasi yoki modulga kirgan didaktik materiallar paketini oladi , unga quyidagilar kiradi:

- blok mazmuni konspekti;
- o‘quv elementlarini (ta’lim standartining mazmun birliklari) o‘qish dasturi;
- joriy va o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun daraja mezonlarini o‘z ichiga olgan “sinov varag‘i” bilan “nazorat ishi”;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish va mustaxkamlash kartochkasi;
- yakuniy nazorat ishi namuna yoki sinov uchun savol va topshiriqlar;
- masala echimi va javoblari bo‘lgan o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun “echimlar”;
- erkin tanlov uchun, ijodiy xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlar.

Uyga vazifa majburiy emas. O‘quvchiga modul bilan ishlash metodikasini tushuntirib, eslatib turish lozim.

2.Blok mazmunini o‘rganishni asosiy konspektdan foydalananib ma‘ruzadan boshlash lozim.

Boshidan berilgan bo‘lim materialini o‘rganishga undovchi muammoli vaziyat xosil qilinadi. So‘ng materialni umumiylar tarkibi, asosiy tushuncha, mantiqiy bog‘lanishlar, qiyin joylar tushuntiriladi

3.Modul dasturi asosida o‘quvchilar materialni mustaqil ravishda darsliklardan foydalaniłgan holda batafsil o‘rganadilar.

4.Materialni mustaxkamlash «nazorat ishi» kartochkalardan foydalaniłgan xolda bajariladi.

5.Baho faqat modulni to‘liq o‘rganilganidan so‘ng yakuniy qilib chiqariladi. “Tekshiruv ishini” o‘quvchi tayyorgarligiga ko‘ra topshiriq darajasini o‘zi tanlaydi: majburiy topshiriqlarni tanlansa (d-belgili) faqat 3 ball, undan qiyinrog‘iga (Yo) 4 ball, mustaqil fikrlashni talab qiladiganlarini tanlasa 5 ball olishi mumkin.

6.Yakuniy nazorat ishidan oldin umumlashtiruvchi dars o‘tiladi. Sinf guruhlarga bo‘linib, har bir guruh blokning bir qismi bo‘yicha olgan bilimlarni tizimga solib uning vakili boshqalarga taqdimot qiladi.

7.Yakuni baxo yakuniy nazorat ishi bo‘yicha sinov mezonlari asosida chiqariladi.Baxoga rozi bo‘lmagan o‘quvchi qayta topshirishga (1 marta) xaqi bor. (6-sxema)

II. Muammoli o‘qitish texnologiyasi o‘rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni talabalar tomonidan mustaqil hal etilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Bunda muammoning turi, muammoning sabablari va ko‘rinishlari, muammoni hal etish uchun harakatlar belgilanadi.

Muammoli ta’lim bu – talabaga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta’lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u talaba shaxsidagi muhim belgi – ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o‘rganiladigan mavzuning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining

faoliyati qanday bo'lsa, talaba faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'lim talabalarni erkin fikrlashga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishga va fikrini yanada rivojlantirishga o'rgatadi. Bunda talaba diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrlarni bayon qila olishi kerak. Agar o'qituvchi yangi mavzuni ta'sirli bayon qilib, ko'rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim talabalar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni samarali bo'ldi yoki faol bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta'lim usuli an'anaviy ta'lim berishdir.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi"- degan g'oya yotadi va muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

- muammoli vaziyat;
- muammoni echish yo'llarini izlash;
- muammoning echimi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va darslik bilimning asosiy manbai bo'lsa, muammoli o'qitishning falsafasi va metodologiyasida o'qituvchi talabalarning izlanish–tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, va yordamchisi sifatida namoyon bo'ladi.


Muammoli o'qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o'qituvchi o'zi echishi lozim bo'lgan zidlikni ko'rishidan iborat ekanligini ta'kidlanadi. Muammoli o'qitish texnologiyasi asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog J. Dyui g'oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab, o'z – o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J.Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy,

konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar.

J.Dyui g‘oyalari bo‘yicha, bola bilishda insoniyat yo‘lini qaytaradi, bilimlarni o‘zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo‘lib, bola o‘zida hosil bo‘lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o‘zlashtiradi. J.Dyuining fikricha, o‘qitish samaradorligining shartlari hamda o‘quv materialini muammolashtirish talaba faolligi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Muammoli o‘qitish – talabaning muammoli taqdim etilgan ta’lim mazmuni bilan faol o‘zaro bog‘lanishni tashkil etadi. Bu jarayonda talaba ilmiy bilimning ob’ektiv zidliklari va ularning echimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishga o‘rganadi. Muammoli ta’limning asosiy omillari quyidagilardan iborat.

Muammoli o‘qitishning yakuniy maqsadi – talabalarni muammolarni ko‘rish va echishga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. **1.5-sxema. Muammoli ta’limning asosiy omillari**



III.Hamkorlikda o‘rganish - talabalarning bilimini o‘zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo‘yicha reproduktiv faoliyatini ta’minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo‘yicha talabaning bevosita boshchiligidagi ishga solishni tashkil etishga asoslangan o‘qitish va bilim olishdir. U talabalarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metodlardan iborat.

Bularga kitob bilan ishslash, o'quv suhbati, davra suhbati, aqliy xujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin.

IV.Tadqiqot - talabalar tomonidan muammoni tushunish va echish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig'indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi dars jarayonida talabalarda savol qo'yish va ularga javob izlashida qiziqishini uyg'otishga qaratilgandir. Unda o'qitish talabalarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta'minlaydi. Bularga muammoli vaziyat, loyihalash metodi, mustaqil izlanish, yo'naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi.

Ta'lif texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda talabalarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishslash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim.

Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak. CHunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi keskin pasaya boshlaydi.

Bu hamma yuqoridagi takliflar talaba yoki talabaning diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi.

Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalanilsa, esda olib qolning bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat «ma'ruza»lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin holos. Agar ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75%ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar bиргаликда ишга солинган бо‘лса, ма’лумотлarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga о‘тish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo‘lib hisobланади.

Yuqoridagi ma’лумотлар shuni ko‘rsatадики, dars jarayonida an’anaviy metodlar qо‘llanилганда, talabalarning axborotni eslab qolish ko‘rsatkichining eng yuqori darajasi 30%ni tashkil etар ekan. Noan’anaviy metodlar qо‘llanилганда esa, talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Har qanday ta’limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qо‘llay bilish ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko‘rsatmalarni ishlab chiqishdir. O‘quv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalgaloshар екан, turli metodlarni bиргаликда qо‘llash zarur. SHuning uchun, metod tanlashda eng asosiy omil bo‘lib, o‘quv mashg‘ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Metod tanlash nafaqat o‘quv maqsadidan, balki o‘quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bog‘liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda talabalarning soni, ularning o‘quv imkoniyatlari, ta’limning davomiyligi, o‘quv-moddiy sharoitlar va o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiyalarning uchta darajasi mavjud:

1. Umumiy metodik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatları, kontseptual asoslari, o‘qituvchi va talabaning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan bir o‘quv fani, kursni o‘qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalgaloshар maqsadida ta’lim mazmunini talabalar ongiga singdirishda foydalaniladigan o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta’lim-tarbiya jarayonining ma’lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to‘ldiradi va taqozo etadi. Hamkorlik–o‘qituvchi va talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, ularni ma’naviy, axloqiy, intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg‘unlashtirish, faoliyatning natijasi va borishini hamjihatlikda tahlil qilish imkonini beradi. Demokratlashtirilgan jarayonni insonparvarlashtirish o‘quv-tarbiyaviy jarayonining maqsadini amalga oshirish, tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, o‘quv mehnatining xarakteri va mazmunini o‘zgartiradi va shaxsning uyg‘unlikda rivojlanishiga qulay psixologik muhit yaratadi. O‘qitish jarayonini demokratlashtirishning tub mohiyati talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda ularga tanlash imkoniyati berilishidir.

2-BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA QIZIQARLI DARS SHAKLLARI VA ULARDAN FOYDALANISHDA DIDAKTIK O`YINLARNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI

2.1. Didaktik o`yinlarning pedagogik, psixologik va metodik asoslari

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o`zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Maqsadni amalga oshirishda jahd va g`ayrat mo`ljallangan ishni bajarishda zo`r ta`sirga egadir" deb ta`kidlaydi. Bu fikrlarning darsga tadbipi o`quvchi bilmlarni o`zlashtirish uchun qiziqish va qunt bilan kirishmog`i lozimligini anglatadi.

Bunday fikrlar Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu-Rayhon Beruniy, Ulug`bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning asarlarida ham uchraydi.

Pedagogika tarixida hozirgi zamon xoriy va hamdo`stlik mamlakatlari didaktikasida "O`yin vositasida ta`lim berish"ning anchagina tarafdorlarini topish mumkin.O`tmish va hozirgi davrning atoqli pedagoglari (I.Pestallotsi, K.Ushinskiy, M.Montissori, F.Frebel, S.Frene, O.S.Gazmon, D.Elkonin, M.Davletshin, E.G`oziev, M.Vohidov, K.Xoshimov, R.Mavlonova) o`yin ta`limning bolalar tabiatiga eng mos keladigan vositalari qatoriga kiradi deb qayd qilib o`tganlar. Juhon tarqqiy etgan mamlakatlarida ham ta`lim jarayonida o`yin shakllari va usullaridan faqat boshlang`ich maktabalarda emas, balki o`rta va kichik maktablar bo`g`inlarida ham ancha faol foydalanmoqdalar (Voldorf, Montissori, Frene maktablari va boshqalar).

Psixologilar (ruxshunoslar)dan S.L.Rubinshteyn, M.Davletshin, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, D.N.Uznade, E.G`ozievlari o`yin faoliyati nazariyasini ancha muvaffaqiyatli ravishda ishlab chiqanlar. V.V.Davidov, Yu.P.Sokol`nikov, N.A.Anikeeva va boshqalar rahbarligida bajarilgan ayrim aniq ruhiy-pedagogik tadqiqotlar faoliyatining etakchi turlari bo`lgan o`yin, o`qish, mehnat va muomalaning maktabgacha va maktab yoshining turli bosqichlarida shaxsning kamol topishidagi izchilligini ko`rsatib beradi.

Pedagogik jihatdan tashkil etilgan o`yinlarning mohiyati va tuzilishini o`rganishga ko`p e`tibor berildi.

Bizning pedagogik faoliyatimizda bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning boshqa vositalari bilan teng huquqli bo`lgan o`yindan hamisha ham foydalanisha bermaydi. Bunday ahvolning sabablari - o`yinlar o`tkazishning yaxshi ishlab chiqilgan metodikasining yo`qligi, ta`lim jarayonida ularning tutgan o`rni, geografiyaning turli kurslari uchun har xil o`yinlar to`plamining ta`min etilmaganligidir. Didaktik o`yinlar boshqa o`yinlarga qaraganda o`qishning sababini asoslab berishni kuchaytirishga yordam beradi, maktab o`quvchilarining majburiy bilim minimumini o`zlashtirilishini ta`minlaydi. Bu degan so`z - ayni didaktik o`yinlar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish, maktabning umumiyligini vazifasini hal qilishga yaqinlashish mumkin.

Ta`lim nazariyasi sohasidagi obro`li mutaxassislar ta`lim jarayonini insonparvarlashtirishning sharti sifatida darsning ta`sirchan o`yin jihatidan ta`minlanishi hisobiga didaktik vositalarni kengaytirish zarurligi haqida asosiy xulosalar bergenlar.

O`yin ta`lim samaradorligini oshirishning stixiyali vositasi emas, balki uning didaktik vositasi sifatida namoyon bo`lishi uchun shu tariqa ta`limlashtirish kerakki, u tegishli shartlarga muvofiq kelsin. Yu.K.Babanskiy ular jumlasiga tanlab olingan mazmunning qo`yilgan vazifalarga mos kelishini, o`rganilayotgan materiallarga muvofiq ta`lim metodlari va shakllarini tanlashni, o`quvchilarining o`qishga ijobiy munosabatda bo`lishlarini rag`batlantirishni, ta`lim suratlariga mos kelishini kiritgan edi.

Tadqiqotchilarining ko`plari didaktik o`yinlarni faoliyatning sintetik turi deb qaraydilar. Didaktik o`yinlarda ta`lim va tarbiyaviy imkoniyatlar yashiringan. Didaktik o`yinlarning ta`lim jarayonini tashkil etishning boshqa shakllariga nisbatan afzalliklari shundan iboratki, bu o`yinlar ta`lim sabablarini kuchaytiradi, maktab o`quvchilarining bilimlar majburiy minimumini faollik bilan o`zlashtirishini ta`minlaydi.

Biz P.Musaev, R.Qurban niyozov, G.S.Kulinich, V.V.Nikolina larning tadqiqotlarida keltirib o`tilgan didaktik o`yinlarni tasnif qilishga doir mavjud yondoshuvlardar foydalangan holda didaktik o`yinlarni ikki xil turga ajratamiz: didaktik o`yinlar (pedagoglar tomonidan maxsus yaratilgan) va erkin-ijodiy o`yinlar (mustaqil o`yin faoliyati jarayonida bolalar tomonidan yaratilgan o`yinlar).

Didaktik o`yinlar o`zining mazmuniga ko`ra ma`naviy-axloqiy, aqliy rivojlantiruvchi, bilish jarayoniga doir o`yinlar bo`lishi mumkin. Bunday o`yinlarning o`ziga xos xususiyati - guruhiy jipslashish, ijodiy hamkorlik, musobaqadir.

Mustaqil hamdo`stlik mamlakatlari va xorijdagi metodist-geograflar uzoq vaqtlardan beri o`yinlar nazariyasi bilan qiziqib kelganlar, ular bu nazariyani geografiyani o`qitish jarayonida tadbiq etishga urinib ko`rganlar. O`yinlarni geografiyani o`qitishga kiritish g`oyasi 60-yillarning boshlarida Amerika va Angliyada paydo bo`lgan edi. Hozirgi vaqtda xorijlik hamkasblar tajribasida imitatcion o`yinlarni, shu jumladan komp`yuter o`yinlarini amalda barcha sinflarga keng tadbiq etish mayli aniq ko`zga tashlanadi. Bundan ko`zda tutilgan asosiy maqsad fanga bo`lgan qiziqishni oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishdan iboratdir.

Keyingi yillarda geografiya darslarida o`yinlar tadbiq etish to`g`risida L.M.Pancheshnikova, S.N.Proslova, P.Musaev, R.Qurban niyozov, V.V.Nikolina, G.S.Kulinich, O`.Safarov, A.Hayitov, L.Kartel` va boshqalarning tadqiqotlari paydo bo`ldi. Bu tadqiqotlarda o`yinlarni tasnif qilish, ularni darslarda va darsdan tashqari vaqtarda qo`llash va o`tkazish metodikasi ishlab chiqilgan, lekin tadqiqotchilardan hech kim geografiya darsida o`yinlarni tadbiq etish yordamida ta`lim samaradorligini oshirish muammolarini maxsus ravishda ajratib ko`rsatmagan.

Demak, didaktik o`yinlarning turiga qarab mavzularga ajratish, ularni tuzish, qaysilarini ma`lum mavzuda qo`llashni aniqlash zarur.

Didaktik o`yinlarni tashkil etish bosqichlari

(M.Abduraxmonov bo`yicha)

Bosqichlar nomi	Bosqichlarning xususiyatlari va tarkibi	O`yin faoliyati mohiyatini tanlashda uning ahamiyati
1	2	3
Bilimlarni o`rganish zarurligini asoslash.	<p>Quyidagi o`quv faoliyatlarini o`z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> -o`quv muammosini vujudga keltirish; -o`quvchilar oldiga belgilangan mavzuni o`rganish orqaligina hal qilish mumkin bo`lgan vazifa qo`yish; -mavzuning muhimligi haqida o`qituvchining hikoyasi; -o`quv vazifalarini shakllantirish (o`quv faoliyatini tashkil etishning muhim sharti - o`quvchilar tomonidan o`quv vazifalarini mustaqil belgilash); -mazkur mavzuni o`rganish imkoniyatlarini o`zicha nazorat qilish va baholash. <p>Bu eng qisqa bosqich.</p>	<p>O`quvchilarni belgilangan mavzuni o`rganishga undash, qiziqishlarini orttirish.</p> <p>Mavzuni o`rganish uchun tayyorlanishga sharoit yaratish.</p>
Bilish uchun harakat.	Bu eng uzoq davom etadigan bosqich. O`quvchilar o`quv dasturi va darsliklarda belgilangan hajmda bilimlarni o`zlashtiradilar.	O`quvchilarga bu mavzuni o`rganish uchun imkon beriladi.
O`z bilimlarini asoslash va baholash.	Vaqti chegaralanmaydi. Mavzuni o`rganib xulosalash. O`quvchilar o`z o`quv faoliyatlarida qo`yilgan vazifa va erishgan natidalarini tahlil qiladilar va baholaydilar.	O`quv faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Ma`lum bo`lishicha, geografiya darslarida o`quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq dars mavzulari, geografiyaning ayrim bo`limlari mazmuniga moslab hamda geografiya ta`limi samaradorligini oshrishni maqsad qilib, maxsus ilmiy tekshirish ishlarini olib bormagan.

Darslarda o`yinlardan foydalanish orqali insonning tabiat bilan, uni o`rab turgan muhit bilan aloqadorligini o`quvchilar ongiga etkazish asosiy maqsadlari bo`lgan.

Masalan, "Shaxtadan ko`mir qazib olish" o`yinini tashkil etilsa, sinf o`quvchilarining hammasi ishtirok etadilar. Ulardan biri ko`mir havzasida turadi, ikkinchisi ko`mirni yuqoriga uzatadi, uchinchi o`quvchi ko`tarish mashinasini oldida navbatchilik qiladi va hokazo.

So`ng bir qator muammoli vaziyatlar hal etiladi: shaxta portlagandan tortib, portlash sababini aniqlash. O`quvchilarga tushunish va ishni bajarishda qiyinchilik bo`lsa, o`qituvchi yordam beradi.

Yuqori sinf o`quvchilari bilan kam harakat, ziddiyatli, lekin murakkabroq mazmunli o`yinlardan foydalaniлади. Masalan, ma`lum bir ko`chani kengaytirishga bag`ishlangan shahar hokimining yig`ilishi. Bu o`yinda o`quvchilar quyidagi vazifalarni bajaradilar: shag`ar hokimi, bosh muhandis, tarix va o`lkashunoslik vakillari va hokazo.

O`yin ishtirokchilarida aniq tasavvur bo`lishi uchun har bir vazifani bajaruvchiga tushuncha beriladi. Masalan, shahar hokimi shaharni hozirgi zamon qiyofasiga keltirish uchun qayg`uradi, bosh muhandis shahar ko`chalarida qatnov erkinligini ta`minlashga harakat qiladi, tarixiy yodgorliklarni himoya qilish jamiyatining raisi qadimiy yodgorliklarni saqlab qolishni o`yaydi va hokazo.

Yig`ilish qatnashchilari, ya`ni maxsus vazifaga biriktirilmagan o`quvchilar kelishmovchiliklarni bartaraf qilish, har bir mas`ul xodimning fikrlarini mulohaza qilib, murosaga keltirish uchun harakat qiladilar. Buning uchun o`quvchilarda shahar tarixiga oid ma`lumotlar va shahar kartasi bo`lishi kerak.

Bunday o`yinlardagi vaziyat bajaruvchisi aniq bo`lgan o`yinlardan qisman farq qiladi: o`yinni qiziqarli va qisman murakkablashtiruvchi ayrim qo`shimchalar kiritiladi.

O`quvchilar uchun darslarda har xil o`yinlardan foydalanish qiziqarli bo`ladi. Shuning uchun darslarning birida fikrlashga oid o`yinlar tashkil etilsa, keyingi darslarda aniq belgilangan topshiriqni bajarishga oid o`yinlardan foydalanish mumkin.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o`yinning ahamiyatini aniq belgilash qiyin: ya`ni qaysi bir o`yin o`quvchilarga nimani o`rgatishini oldindan aytib bo`lmaydi. Chunki, o`yinning imkoniyatlari kengdir.

Hozirgi vaqtarda turli fanlar bo`yicha 15-16 yoshli o`quvchilar uchun komp`yuterda bajariladigan ko`plab o`yinlar ishlab chiqilmoqda. Bunday yo`inlar mazmuni quyidagi masalalarni o`z ichiga oladi: ma`lum bir mavzuni o`rganish, turli inshootlar qurish, yo`l va korxonalar joylashuvini belgilash singari.

Tavsiya etilayotgan ta`lim afzalliklari, tadqiqotchilar fikricha, ta`lim jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish, vaqt ni tejash va o`quvchilar diqqatini markazlashtirishga yordam beradi.

Ommaviy maktab tajribasini o`rganish shunday xulosa chiqarishga yordam beradiki, geografiya o`qituvchilari va metodistlari darsda ham, darsdan tashqari vaqtda ham o`yin faoliyatining imkoniyatlariga etarli darajada yuqori baho bermoqdalar. Amaliyotchi o`qituvchilar butun-butun o`yin darslarini tez-tez tashkil etib turadilar va o`yinlardan darsning ma`lum qismi sifatida foydalanadilar.

Bu o`rinda taniqli olimlardan E.Imomov va Q.Shodievlar "Dars paytida yaxshi tashkil etiladigan o`yin usullari mavzu maqsadi va mazmunini kengroq ochishga, materialning puxta o`zlashtirilishiga, eng muhimi, o`quvchilarni uzoqroq vaqt yodida qolishiga ko`maklashadi" degan mulohazalarini e`tiborda tutish kerak.

Ko`pincha darslarda quyidagi o`yinlar: viktorinalar, o`yin sayohatlar, matbuot konferentsiyalari, krossvordlar, sharadalar va xokazolar o`tkaziladi. O`zbekiston o`qituvchilari ham geografiya darslarida o`yinlar tadbiq etishga urinib ko`rmoqdalar, lekin ular juda ozchilikni tashkil etadi. Darslarda o`yinlarning tadbiq

etmaslikning yoki ularni zaif tadbiq etishning asosiy sababi-metodik tavsiyalarning yo`qligidir.

2-jadval.

O`quv jarayoni o`yinlardan muvaffaqiyatli foydalanish ko`rsatkichlari

O`quv manbalari mazmuniga muvofiqlash tirish.	Murakkab nazariy manbalar. Tabiat qonunlari va ularning turli mavzularda amal qilishi. Amaliy yo`nalishga ega bo`lgan o`quv manbalarini o`yin tarzida ishlab chiqish. Turli manbalardan geografik ma`lumotlar olishni o`rgatish. Inson xayot iva faoliyatiga tabiatda bo`ladigan turli hodisalar ta`sirini o`rganish. Tabiiy boyliklar va ulardan oqilona foydalanish yo`llarini o`rganish. O`lkashunoslikka oid manbalar. O`z o`lkasi tabiatining xususiyatlari O`zi yashab turgan joyda "Inson va tabiat" masalalarining qo`yilishi. Biz yashab turgan joylar qobig`ining geografik qonuniyatları.
Didaktik vazifalarga muvofiqlash tirish.	Bilimlarni umumlashtirish. Tabiiy geografiyadan amaliy ishlar tarkibi. Barcha materiklarning, bizning Vatanimiz va yashab turgan joyimiz tabiatining o`ziga xos hususiyatlari, o`zaro aloqadorligi. Mavjud bilimlarni chuqurlashtirish. Turli O`quv topshiriqlarini bajarish. Tabiatdan samarali foydalanish. Yangi o`quv vaziyatida o`z bilimlaridan foydalana olish.
Tarbiyaviy vazifalarni bajarishga alohida e`tibor berish.	Tabiatga ehtiyyotkorlik munosabatlarini tarbiyalash. Tabiat in`omlariga ongli munosabatda bo`lishni tarbiyalash. Tabiat majmuasi aloqadorligini anglash va ularga o`ylab, ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo`lishni tushuntirish. Tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlar va tabiatga munosabat qoidalarini bilish. O`z fikrini asoslash. Turli munozaralar va anjumanlarda geografik bilimlar va geografik iboralardan o`rinli foydalanishni bilish. O`z fikr va qarashlarini to`g`ri bayon etish va o`z munosabatlarini asoslay olish.

Shu bilan birga ilmiy metodik adabiyotlarni o`rganish shuni ko`rsatadiki, o`yinlarning geografiya ta`limi samaradorligini oshirishga ta`siri, bo`limda, mavzuda o`yinlarning eng maqbul sonlari, geografik mazmundagi o`yinlarning turli maktab o`quvchilarining yoshi bilan aloqasi, o`yinlarning ta`limni tashkil etishning boshqa shakllari bilan bog`liqligi masalasi maxsus ravishda o`rganilmagan. Geografiya o`qituvilarining ish tajribalari shuni ko`rsatadiki, o`qituvchilar o`yinlarining tarbiyaviy va ta`limiy imkoniyatlariga yuqori baho beradilar, ularni geografiya darslarida va darsdan tashqari vaqtarda qo`llashga intiladilar. Ko`pincha o`yinlarning quyidagi turlari foydalaniladi: o`yin sayohatlar, o`yitn musobaqalar, stol usti o`yinlari (krossvordlar, rebuslar, loto va boshqalar), syujetli rolli o`yinlar. O`yinlarning ko`pchiligi V-VII sinf o`quvchilariga, ya`ni tabiiy geografiyaning boshlang`ich kursi, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O`rto Osiyo tabiiy geografiyasi va O`zbekiston tabiiy geografiyasiga to`g`ri keladi.

Geografiya ta`limiga qiziqarli o`yinlarni tadbiq etishni targ`ib qilish tarafdarlari bo`lgan pedagog-tadqiqotchilar dars jarayonidagi didaktik o`yinlarni o`rni va ahamiyatini turlicha baholaydilar. L.M.pancheshnikova, S.N.Praslova, G.A.Ponurova, L.V.Belyaeva, G.Ya.Lisenkova, V.V.Pyatuninlar didaktik o`yinlarni muammoli ta`limning bir shakli, darsning bir qismi, fikr o`stirishning bir shakli deb; V.P.Korneev, E.G.Kolosovskiy, V.M.Lyantsevich, L.P.Simenova, A.V.Prokof`evlar bir butun darsga mo`ljallangan ta`limning bir shakli, bilimga qiziqishnio`stirishning bir shakli deb; V.I.Sereda, M.G.Zaxarov, K.S.Momentovalar sinfdan tashqari ish shakli yoki darsning bilim saviyasini kengaytirish sharti deb; G.P.Kulinich, V.V.Nikolina, P.Musaev, R.Qurban niyozov, A.Hayitov, O.Mo`minovlar esa o`quvchilarni har tomonlama tarbiyalash, bilim berish va rivojlantirishga yordam beruvchi o`qish va o`qishda tashqari shakli deb qaraydilar (Abduraxmonov va boshq, 2000). Mening fikrimcha geografiya darslarida qiziqarli dars shakllaridan, o`yinlardan foydalanish o`quvchilarda ijodiy va mahsuldor fikrlashni rivojlantiruvchi, o`quvchilarda tanqidiy fikrlashni tarbiyalovchi dars shaklidir. Chunki, bunda qo`yilayotgan masala echimi aniq

isbotdangina emas, balki o`quvchilarni dunyoqarashi va fikrlarini yo`naltirishga ham xizmat qilish mumkin. Bu esa o`quvchining mahsuldor fikrlarini rag`batlantirilishiga sabab bo`ladi. Ayni shu o`rinda keyingi qismlarda o`quvchilardagi ijodiy fikrlashning rivojlantirish jahbalariga to`xtalib o`taman.

2.2. Geografiya ta`limida o`quvchilardagi ijodiy fikrlashning rivojlantirish jahbalarি

Davlat arbobi I.A.Karimov "O`qituvchi-o`quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o`rnini ongli intizom egallashi qiyin kechyapti. O`qituvchining bosh vazifasi o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko`pincha yaxshi tushunamiz, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz" deb ta`kidlaganlarida aynan haqiqiy holatni bayon etgan edilar.

Respublikamizda qabul qilingan "**2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar strategiyasida**" - uzlusiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirish yo`lini davom ettirish, sifatli ta`lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun zarur bo`lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi. Jumladan, ta`lim jarayonida qo`llanilayotgan uslublarni takomillashtirish, ta`lim sistemasiga ilg`or pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Shu kungacha o`qitishga an`anaviy yondoshuv asosida qarab kelindi. Unda "tayyor" bilimlarni uzatib berish modeli asosiy o`rin egallardi. Biroq, axborot-telekommunikativ tarmoqlarning rivojlanishi yuqori darajaga erishgandan so`ng bu usulda dars o`tish o`z samarasini bermay qoldi. O`quvchi o`qituvchidan har soniyada yangilik kuta boshladi. Bu esa g`arb pedagoglari tomonidan dars o`tishning yangi interaktiv usullarini hayotga tadbiq etilishiga olib keldi. Shuningdek, o`quvchilardagi ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga doir ko`plab uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ishda geografiya kurslarini

o`qitishda o`quvchilarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish masalalari borasida fikr yuritamiz.

Zamonaviy ta`lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning o`ta muhimligini eng kamida ikkita asosiy sabablari bor.

Birinchidan, ta`lim tizimidagi akademik ta`limning haqiqiy hayot talablaridan ajralib qolganligi, berilayotgan "tayyor" umumiyligi va kasbiy bilimlarning hayot amaliyotiga mos kelmasligi o`quvchilarni o`qishga bo`lgan qiziqishlarini susayishiga sabab bo`ldi. Va buning oqibatida olingan bilimlarning sifati pasaydi. Bu bilimlarning o`zлari ham ko`pincha ma`lumot xarakteriga ega bo`lib, o`zlashtirishning reproduktiv darajasigagina taalluqli bo`lib qolmoqda.

Ikkinchidan, o`zbek xalqiga xos mentalitet-kattalarining irodasiga bo`ysunish, o`qituvchi o`rgatgan narsaga so`zsiz ishonch hosil qilish, hayotiy masalalarni hal qilishda samarasiz bo`lsada, eng oson yo`l tanlash, amaliy ziddiyatlarni mumkin qadar chetlab o`tish kabi qator qonimizga singib ketgan odatlarimiz ko`p hollarda ijodiy fikrlashni chekkalanib qolishiga sabab bo`ladi.

O`quvchilardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirishga doir uslubni tanlashda o`quvchilarning pedagogik-psixologik holatlari bilan birga ularning yosh jihatlarini ham alohida e`tiborga olish lozim. Shu o`rinda geografiya ta`limida o`qituvchi fanning spetsifikasidan kelib chiqqan holda o`quvchilardagi erkin fikrlash tuyg`ularini tarbiyalay olishi, o`quvchining fikrlashini bir maqsadga yo`naltira olishi lozim.

O`quvchilardagi ijodiy fikrlash geografik qonuniyatlar va ularni tahlil etishda, bu qonuniyatlarini amaliyotga qo`llay bilishda qo`l keladi. Mavzuni oshib berishda o`qituvchi ushbu mavzuga doir bir qator ishlanmalarni, savol va topshiriqlarni ishlab chiqishi, eng muhimi darsning muhim momentini aniqlab, yangi pedagogik texnologiyaning eng optimal uslubini tanlay bilishi muhimdir.

O`qituvchi dars jarayonida o`quvchilarning har bir topshiriqni bajarishda unga qanday maqsad bilan yondashayotganligi, o`quvchining javobidagi mantiqiy fikr bilan nostandard fikrlarni o`z vaqtida anglay olishi muhimdir. G`arb psixologlarini ta`kidlashicha "...ehtimol kamaygan sari mantiqiy fikrlash, aks holda

nostandard fikrlash ustunligi ortib boradi". Nostandard fikrlash esa o`z navbatida ijodkorlikni keltirib chiqaradi.

Ta`lim jarayonida muammoli vaziyatni tashkil etishda topshiriqlarni har tomonlama muhokama qilishga doir misollar bilan boyitish o`quvchilarni masalaga al`ternativ yondashuvlariga imkon yaratadi. Masalan, "er shari iqlimining o`zgarib borayotganligi haqida bilasiz. Ushbu jarayonning sababi, ijobiy va salbiy tomonlarini har birini kamida 10 tadan misol bilan baholab bering...". Ushbu topshiriqni bajarishda o`quvchi jarayonning har bir jihatini sinchiklab tahlil qilishga harakat qiladi.

Ijodiy fikrlashning rivojlanishida o`quvchilardagi tanqidiy fikrlash, ularning sinchkov bo`lishlari va har bir tabiat qonun va hodisalarini har tomonlama muhokama qilishlariga o`rgatadi. Natijada o`quvchilarda mahsuldor fikrlash hissi paydo bo`ladi. Bu esa nafaqat geografiyada, balki boshqa sohalarda ham qator yangiliklar, yangi fikrlar va turli xildagi bahs-munozaralarga sabab bo`ladigan yangi gipotezalarni yaratilishiga olib keladi.

2.3. Geografiya darslarida situatsion-o`yinli metodlardan foydalanishning pedagogik-psxologik omillari.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasida- « Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo`lsak, uni aynan innovatsion g`oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.”-degan edi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o`qitishning faol shakllarini, bo`lajak mutaxassisni haqiqiy faoliyatini, o`quvchilarning o`quv tarbiya ishlarini tashkil qilishda, imitatsiya (taqlid) qilish, nazariy bilim va malakalardan amaliy bilim va ko`nikmalarga o`tishda imkonи boricha mustaqillik berishni nazarda tutadi. Biroq, pedagogikada shu kungacha foydalanib kelingan an`anaviy dars o`tish metodlari o`quvchilardagi ijodiy fikrlashni rivojlanmasligiga, voqeа-hodisalarga nisbatan

shaxsiy erkin fikrlarini bildira olmasligiga, natijada ularni faqat berilayotgan bilimlarni to`g`ridan-to`g`ri o`zlashtiruvchi sifatida rivojlanishlariga olib keldi.

An`anaviy pedagogikada ta`lim jarayoni ming yillar davomida ikki tomonlama jarayon bo`lib hisoblanar edi. Unda o`qituvchi o`quv-tarbiya jarayonining sub`ekti, o`quvchi yoki o`quvchilar jamoasi shu jarayonning predmeti sifatida qaralgan.

Darsda o`qituvchi bosh figura (sub`ekt) bo`lib, u axborot yuborish, tezroq o`qitish bilan ovora, lekin o`quvchilarning yangiliklarni qabul qilish darajalari har xil, hoxish istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi yoki quloq soluvchi bo`lib, bu ularning o`quv jarayonidagi mas`uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, hulosa chiqarishdan yiroqda (L.Rasulova, Sh.Zokirov, 2002).

Bu muammoni hal qilish uchun ta`lim sohasiga kirib kelgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugunning dolzarb kechiktirib bo`lmas masalasiga aylanib qoldi.

O`quvchilarda geografik bilim, malaka va ko`nikmalarni rivojlantirish hamda ularda ijodiy fikrlashni rag`batlantirishning eng qulay metodlaridan biri situatsion-o`yinli metodlardir. Bu metodlar harakteriga ko`ra imitatsion (taqlidli) va noimitatsion metodlarga ajratiladi.

Imitatsion metodlar - pedagogik usullar va mashg`ulot o`tkazishning maxsus shakli bo`lib, o`quvchilarni o`quv jarayonida ma`lum soha mutahassislariga taqlid qilishlariga asoslangan situatsion-o`yinlar zaminiga quriladi. Bu metodga ishbilarmonlik o`yinlari, o`yinli loyihalashtirish va boshqa metodlarni kiritish mumkin.

Ishbilarmonlik o`yinlari orqali o`quvchilarda tadbirkorlik, tashkilotchilik va ishbilarmonlik hislari shakllantiriladi. Masalan, "Mini avtozavod" o`yini. Ushbu o`yinni iqtisodiy geografiya kurslarini o`qitishda hududiy ishlab chiqarish majmualari, geografik mexnat taqsimoti va boshqa bilimlarni egallashda qo`llash maqsadga muvofiq.

O`yinli loyihalashda asosan ob`ektni yaratilish va takomillashtirish jarayoni imitatsiya qilinadi yoki qayta tiklanadi. Bu metodda o`quvchilardan biror ob`ektni, masalan, qurilishi rejalashtirilayotgan suv ombori loyihasini o`rganib chiqish so`raladi. O`quvchilar guruhlarga bo`linib, o`z ichlaridan "loyihachi", "gidrolog", "qishloq xo`jalik xodimi", "ekspert"larni tayinlaydilar. Ushbu masala "mutahassis"lar tomonidan har tomonlama o`rganib chiqiladi. Bu metod orqali o`quvchilarni kasbga yo`naltirish, masalani o`rganib chiqishda ko`p tomonlama tahlil qilinishi, o`quvchilarda javobgarlik hissini rivojlanishi, eng muhim, o`z fikrlarini astoydil himoya qilishlari uchun zamin yaratiladi.

F.Djumaboeva, N.So`fixo`jaev va Z.Tursunovalar o`quvchilarda ijodiy fikrlashning rivojlantirishga doir tavsiyalarni ishlab chiqib, situatsion-o`yinli metodlar o`quvchilar orasida quyidagi guruhchalarni shakllanishiga olib keladi deb hisoblaydilar:

- "masalani aniqlovchilar"-berilgan topshiriqlarning maqsadini tez anglaydilar va guruhga tushunarli bo`lishini ta`minlaydilar;
- "faollashtiruvchilar"-jamoadagi katalizator vazifasini bajaruvchi o`quvchilar. Ular jamoa a`zolarini faollashtirib, bir hil darajada ushlab turadilar;
- "g`oyalar generatorlari" - g`ayrioddiy fikr bildiruvchilar. Ular odatda masalani echimiga olib boruvchi yo`lni taklif qiladilar;
- "rezonatorlar" - g`oyalarni tug`ilishiga va ularni jamoadoshlari orasida qabul qilinishiga erishadilar;
- "nazoratchilar" - muammoni echishning optimal variantini qayta ishslash va tanlash bilan band bo`lgan o`quvchilar.

Situatsion-o`yinli metodlar boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalanishni cheklamaydi. Aksincha, ushbu metodning asosiy maqsadini ochib beradigan muhokama qismida munozaralar-"Aqliy hujum", "Amaliy anjuman", "Barcha omillarni qara", "Plyus, minus, qiziq" va shu kabi boshqa metodlar bilan uy\unlikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

2.4. Geografiya darslarida didaktik o`yin elementlaridan foydalanish uslublari va texnologiyasi

Geografik o`yinlarni quyidagi guruhlarga bo`lishimiz mumkin:

- a) mashqli geografik o`yinlar, topishmoqlar, chaynvordlar, krossvordlar, rebuslar, viktorina, loto, domino va boshqalar;
- b) sayohat o`yinlari: berilgan ma`lum yo`nalish bo`yicha, alohida region bo`yicha kartalar asosida sayohat yoki "Ekspeditsiya" tariqasida olib boriladi;
- v) musobaqa o`yinlari: sinf o`quvchilari guruhlarga bo`linib, ma`lum topshiriqlar asosida o`zaro musobaqalashadilar, topshiriqlarni tez va aniq topilishi g`olibni aniqlab beradi;
- g) rolli o`yinlar: o`quvchilar ma`lum muammoni hal qilishda qatnashadilar.

O`quvchilar o`yinlar jarayonida o`lka materiallaridan keng foydalanib, mavjud muammolar: ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni ochish, ularni bartaraf qilishni yo`llarini o`rganadilar. Bu esa o`yinlar orqali o`quvchilarni mamlakat miqyosida sodir bo`layotgan voqealar bilan tanishtirish, Vatanga muhabbat tuyg`usini singdirish, turli kasblar bilan tanishtirish, mexnat ko`nikmalarini yaratishga olib keladi.

O`quv-tarbiya jarayonida geografik o`yinlarning ahamiyati shundaki, o`qituvchi-o`quvchi aloqasini, ularning o`zaro xamkorligini mustahkamlaydi.

O`quv jarayonida o`yinlarni qo`llash, uning qay tarzda o`tishi tayyorgarlikka, materiallar tayrlashga, o`yin qoidalariga rioya qilish va to`g`ri tashkil etishga bog`liqdir. Avvalo, o`yin qoidalari bilan tanishtirish, uning mohiyatini tushuntirish lozim. Chunki, o`quvchi qanday vazifalarni bajarishini bilishi hamda nimalarga e`tibor berishi kearkligini tushunishi lozim. O`qituvchining vazifasi esa, o`yin davrida o`quvchilarni kuzatish, qanday qatnashganliklarini hisobga olish hamda o`quvchi bajargan ishlarga qarab ularni baholashdir.

Darsda o`yin ruhi vujudga kelib, maqsad aniq bo`lsa, dars qiziqarli bo`lishi turgan gap. O`quvchilar dars jarayonida turli manbalar asosida ishlaydilar, hisobotlar yig`adilar, munozara va bahslar olib boradilar hamda o`z fikrlarini

bildiradilar. Shunisi diqqatga sazovorki, o`quvchilar mustaqil ravishda turli vazifalarni bajaradilar, o`zlarini bir necha kasblarda sinab ko`radilar. Muammolarni hal qilishda Yana nimalarga e`tibor berishligini ko`proq talab qiladilar.

Rolli o`yinlarni tashkil qilish, mavzuni e`lon qilish, reja tuzish, o`yin shartlari bilan oldindan tanishtirish, kerakli manbalarni ko`rib chiqish, ko`rilayotgan muammo ko`lami, rollarni taqsimlash, konsul`atsiyalar uyushtirish kerak bo`ladi. Darsni jihozlash, texnika vositalarini qo`llash, rasm va jadvallarni qo`yish va boshqa ishlarda qatnashgan o`quvchilarni ham hisobga olinishi lozim.

O`qituvchining konsul`atsiyasi muhim bo`lib, darsning barcha bosqichlarida: darsgacha tayyorgarlik ko`rish, darsni yakunlash davrida natijalarni hisobga olish va umumlashtirish juda muhimdir. Chunki, bunda o`quvchilarga o`yin mazmuni, qoidalarga e`tibor berish lozimligi haqida maslahatlar beriladi.

Shuni ta`kidlash lozimki, o`quvchilar oldiga muammo qo`yilishi lozim. O`qituvchining qisqa izohi bilan o`yin boshlanib, maqsad, qoidalarga rioya qilish, topshiriqlarni tez va aniq bajarish ta`kidlanadi. O`qituvchilarning tayyorgarligi, qay darajada qatnashishlari va faolliklari darslarning samarali o`tishida muhim rol o`ynaydi. O`yin natijalarini o`qib chiqish, xulosalash o`qituvchilarning mavzuni qanday o`zlashtirganliklarini aniqlashga imkon beradi. O`quvchilar bilimini baholash, ularni rag`batlantirish muhim bo`lib, bilimga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshiradi, har qanday muammoga atroflicha yondoshishga undaydi. Natijada darslik va boshqa manbalar asosida mustaqil bilim olish imkonini beradi.

Sinfdan tashqari vaqtarda geografik o`yinlardan keng foydalanish imkoniyatlari mavjud. Harkatli geografik o`yinlar, viktorinalar, rebus, krossvord, loto, domino va boshqalardan fan kechalarida foydalaniladi. Darsning ma`lum qismlarida 10-15 minut darsni mustahkamlash uchun oydalaniadi. Topishmoqlar, karta bo`ylab sayohatlar, topshiriqlarni tez va aniq bajarish bo`yicha musobaqalar tashkil qilinadi. O`yin darslari darsning hammasini yoki ikki darsni qamragan holda bo`lib, o`quvchilar ma`lum rollarni bajaradilar. O`quvchilar tegishli

manbalar asosida mutaxassis olim, raxbarlik rollarini bajarib, muammolarni hal qilishda qatnashadilar.

Geografik o`yinlar xususiyatiga ko`ra dars jarayonida sayohatlarga, ekspeditsiyalarga yoki noma`lum orollarga kartalar asosida tavsifnomalar yozishdan iborat. Mutaxassislar sifatida yangi korxonalarni qurish, xo`jalik hisobiga o`tish kabi jarayonlarda iqtisodchi, quruvchi olim va shu kabi mutaxassislar bozor iqtisodi sharoitida xo`jalik yuritishning yangi shakllari bilan tanishadilar.

Shuni hisobga olish lozimki, o`yin darslarida bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish mustahkamlanibgina qolmay, yangi materialni o`rganish umumlashtirish, sistemalash, xususan, muammolarni hal qilishda to`g`ri va aniq yo`l topish, o`z fikrida turish, uni himoya qilishga undaydi. Topshirilgan rolni bajarish yangi pozitsiyani egallash, yangi jamoat faoliyatida shaxsiy faollik o`quvchilarni mustaqil ishlashlariga undaydi. Shuning uchun o`quvchilar ayniqsa, bosh yoki rahbarlik rollarini berishlarini so`raydilar. Roli o`yinlar mazmunini, asosini real muammolar, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy yoki ularning komplekt xususiyatlari tashkil qilishi mukin. Shuni aytish kerakki fantastik, adabiy syujetlar ruhi darsni yanada qiziqarli bo`lishiga xizmat qiladi. Insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarga, ularni bosqichma-bosqich hal qilishga o`quvchilar qatnashtiriladi. Shuni hisobga olish kerakki, tayyorgarlik ko`rish uchun darslik bilan ishslash, kartalardan foydalanish, qo`llanma materiallar, ilmiy-ommabop adabiyotlar tahlil qilish, taqqoslash, xulosalash, muhokama qilish, qarama-qarshi fikrlarga yakun yasash, o`z fikrini isbotlash mas`uliyati mavjud. Roli o`yinlar mustaqil ijodiy faoliyatdan iborat bo`lib, individual, guruhli va frontal tarzda qo`llanishi mumkin. Oltinchi sinf o`quvchilari bilan frontal ishslash maqsadga muvofiq bo`ladi. Chunki, bu dars formasi yangi bo`lgani uchun nisbatan uncha murakkab bo`lmasligi topshiriqlar berilishi va darsda hal qilinishi lozim bo`lgan masalalarni butun sinf bo`yicha muhokama qilish maqsadida vazifalar taqsimlanadi. 7-8-10 sinflarda esa individual, guruhli formalarda amalga oshiriladi.

Gruppali bu sinfni 3-4 guruhga bo`lib, ularga ma`lum topshiriqlar berilib, natijasi kutiladi. Guruhlararo musobaqalar uyuştirish ham mumkin.

Ta`lim jarayonida geografik o`yinlardan foydalanishning dastlabki bosqichida o`qituvchi o`quvchilarga nima zarur, nima zarur emasligini tushuntiradi. Keyinchalik o`quvchilarning mutaqil ishslash layoqatlari ortib borishi bilan o`yin jarayonida zaruriy bilimlar tabiiy tanlanib boriladi. Ma`lumotlarni mustaqil tanlab olish layoqatining ortib borishi o`quvchilarni didaktik o`yinlarga tayyorgarliklarini oshiradi.

Geografiya ta`limida guruxlararo o`yinlarning mazmuni unga tayyorgarlik bosqichi va o`yin jarayoni nihoyasida murakkab bo`lsa-da uning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatishga harakat qilamiz. Yuqorida aytilganidek, tayyorgarlik bosqichida quyidagilar hal etiladi:

- 1) o`yining maqsadini belgilash, ya`ni o`yin orqali o`quvchilar o`zlashtirish lozim bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalar hajmi aniqlanadi;
- 2) quyidagi talablarga javob beradigan vaziyatlarni yaratish:
 - a) o`yinning o`quvchilar tayyorgarlik darajalari va yosh xususiyatlariga, o`quv ishlaridagi aniq muammolarga mos bo`lishi;
 - b) o`yin ko`rinishlarini aniq belgilash, ya`ni o`yin tarkibiga kiruvchi holatlarni ayrim qismlarga ajratish;
- 3) o`yin qoidasini ishlab chiqish, har bir ishtirokchiga alohida-alohida vazifalar belgilash, tasodifiy holatlar sodir bo`lganda nimalar qilish kerakligi o`yining boshlanishi va tugashi, harakatlar soni ko`zda tutiladi;
- 4) o`yin tavsiyatini yozish. Bunda boshqaruvchi va har bir ishtirokchi arakatlarini tasvirlab, o`yinchilar uchun maxsus ko`rsatma tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqich - o`yinni tashkil etish. Bunda avvalo o`rganilayotgan bo`limga oid o`yinni boshlanishi haqida o`quvchilarga habar qilish; o`yinni tayyorlash va o`tkazish uchun boshqaruvchi tanlash va saylash amalga oshiriladi. Boshqaruvchi qilib odatda guruh boshliqlari ko`rsatilib, ular o`yin qoidasini puxta o`rganadilar, o`yin jarayonidagi holatlarni mustaqil ishlab chiqadilar. O`yining natijalari turlicha bo`lishi mumkinligini oldindan tasavvur qiladilar.

Uchinchi bosqich - o`yinni o`tkazish. O`yinni o`tkazish uslubi qat`iy belgilanmaydi, o`quvchilarga erkinlik beriladi va ularning ijodkorligi rag`batlantiriladi.

To`rtinchi bosqich - o`yin natijalarini tahlil qilish. Bu o`rinda o`qituvchi hal qiluvchi mavqega ega bo`ladi: u o`quvchilarning o`yin jarayonida o`zlashtirgan bilimlarini tartibga solish, o`yin ishtirokchilarini fikrlarini aniqlash singari masalalarni hal qiladi.

Guruhlararo o`yinlar o`quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini o`stiradi, natijada geografik bilimlari ortib boradi. Demak, har qanday o`yinga tayyorgarlik davrida uning maqsadini aniq belgilash kerak. O`yin qatnashchilariga uning qoidasini tanishtirish lozim. Bu bosqichda vazifalar to`la bajarilishi zarur. O`yin qoidalarini og`zaki tushuntirish bilan chegaralanmay, aniq ko`rsatmalar berish, estalik tuzib ularga tarqatish ham foydalidir.

Murakkab o`yinlarni o`tkazishda o`quvchilarga o`yindagi barcha holatlarni atroflicha tushuntirib, eng muhimi nimalarga e`tibor berish zarurligi ta`kidlanadi.

O`yin tashkil etishdagi muhim masalalardan biri o`ynovchilarini guruhlarga bo`lishdir. Guruhlarni tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

- 1) guruhdagi o`quvchilar soni 5 kishidan oshmasligi;
- 2) har bir guruhdagi o`quvchilar bir-birlarini bilishi, o`zaro munosabatlarining yaxshi bo`lishi hisobga olinishi;
- 3) guruh o`quvchilarining shaxsiy sifatlarini geografiya faniga qiziqishlari va umumiy tayyorgarlik darajalariga e`tibor berilishi;
- 4) o`ynovchilarga vazifalarni taqsimlashda ularni qiziqish va qobiliyatları hisobga olinishi.

Qoidaga ko`ra o`yinda umumiy va ayrim o`ynovchilar vazifasi alohida belgilanadi. Umumiy vazifa bajarilishi uchun ayrim o`ynovchilarga berilgan vazifalar bajarilishi kerak.

Vazifalarni belgilashda o`quvchilar kuchi va ularni qobiliyatlariga e`tibor beriladi.

Xulosa chiqaruvchi guruh o`yin tugunidan keyin natijalarni umumlashtiradi, yakunlaydi va umumiylar xulosalar chiqaradi. Bunday guruhni o`qituvchi tayinlaydi yoki o`quvchilarning o`zlari saylaydilar. Xulosalovchi guruh o`yin natijalarini to`g`ri va xaqqoniyligi uchun ularga o`qituvchi tomonidan me`zon tuzib beriladi.

O`yin natijalarini baholash mezoni quyidagilardir:

- 1) javoblarni to`g`ri va to`liqligi;
- 2) masala echimining o`ziga xosligi;
- 3) fikr yuritishdagi aniqlik va mantiqiylik;
- 4) javob qaytarishda turli ko`rgazmali qurollardan foydalanilishi;
- 5) nutq madaniyati va geografik iboralardan o`rinli foydalanishi.

Qiziqarli darsni tashkil qilishda o`qituvchi avvalo har bir mavzuga oid o`yinlardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish, o`yinlarni stsenariysini albatta oldindan tayyorlab olishi lozim.

Geografiya darslarida didaktik o`yinlardan foydalanish texnologiyasi.

Maktab tabiiy geografiya kurslari geografiya ta`limining asosiy poydevori bo`lib, uning o`qitilishi, sifati, samaradorligi qolgan kurslarni o`qitishning istiqbolini belgilaydi. Chunki, aytishimiz mumkinki, iqtisodiy geografik kurslar tabiiy geografiyaning asosiga quriladi. Qolaversa o`quvchilarni yosh tarkibi ham asosan quyi (V-VI-VII -sinflar) sinflarga to`g`ri keladi. Shundan kelib chiqib tabiiy geografiya kurslarini o`qitishda birmuncha soddarroq, oddiyroq va qiziqarli texnologik uslublarni tanlagan mao`sadga muvofiqdir.

Geografiya ta`limi uchun qator geografik o`yinlar, didaktik materiallar, qo`llanmalar ishlab chiqilgan. Ularni varaqlasangiz juda ko`plab didaktik vositalar bilan birga texnologik uslublarni ham ishlab chiqish mumkin. Shunday qo`llanmalardan «Geografik o`yinlar» (P.Musaev va bosh.), «Tabiiy geografiyadan didaktik materiallar» (L.Kartelp) va boshqa qo`llanmalarni sanashimiz mumkin. Bu qo`llanmalar o`ziga ko`plab qiziqarli materiallarni jamlanganligi bilan xarakterlanadi.

O`quvchilar o`yinlar davomida o`lkashunoslik materiallaridan keng foydalanib, mayjud muammolar; ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarani ochish, ularni bartaraf etish yo`llari bilan tanishadilar.

O`quv jarayonidagi o`yinlarni yaxshi tomoni shundaki, ular orqali o`quvchi va o`qituvchi orasidagi munosabatlar samimiy, musta`kam bo`ladi.

O`yinlarni o`tkazish texnologiyasi quyidagilardan iborat:

1. Tayyorlov bosqichi - uzoq davom etuvchi, javobgarlikni talab qiluvchi qism va o`yin natijasiga ta`sir ko`rsatadi. Bu qismda o`quvchilar o`yining maqsadi, vazifasi, shartlari, baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.
2. O`yinni tashkil etish- o`quvchilar guruhlarga bo`linib vazifa olishadi, qoida, o`yin shartlari asosida dars shaklini belgilashadi.
3. O`yinni o`tkazish - yakka yoki guruxlar bilan sinfda ishlash, berilgan vazifani mustaqil bajarish.
4. O`yin natijalari tahlili - o`yin natijasini o`qituvchi bilan birgalikda baholash, so`ngra bir-birini, o`zlarini ishlarini baholash.

Yuqoridagi sanab o`tilgan mezonlar geografik o`yinlarni tashkil etishda, ularni natijalarini aniqlashda va o`quvchilar tomonidan geografik bilimlarni o`zlashtirilishida asosiy o`rin belgilaydi.

V-VI-sinflarda ko`proq rolli o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa rolli o`yinlar kichik yoshdagi o`quvchilarni o`zlarini tutishga, o`zaro muloqotga kirishishlariga keng yo`l ochib beradi. Shuningdek o`quvchilarni o`zlarini idora qilishlari, muammoni hal qilishda hech ikkilanmaslik hislarini ham tarbiyalab boradi. Unda faqatgina o`quvchilarni rahbatlantirish, ularga dalda berish, o`yinda yaxshi ishtirok etmayotgan o`quvchilarni majoziy obrazlar orqali tanqid qilish ancha yaxshi samara beradi.

Masalan, V-sinfda o`quvchilar bilan "Gidrosfera" mavzusini o`rganish jarayonida "Sayohat" o`yinini tashkil etish mumkin. Yangi mavzuni o`rganish bosqichida sayohat o`yini tashkil etilganida o`quvchilardan bir guruhi fazoviy kemaning boshqaruvchisi, tadqiqotchi, uchuvchi, laboratoriya xodimlari bo`ladilar. O`quvchilarga yangi bilimlarni mustaqil o`rganishlari uchun yordam beradigan

o`yin xususiyatiga ega bo`lgan maxsus vazifalar ishlab chiqiladi. Masalan, "Boshlang`ich tabiiy geografiya" kursi bo`yicha ana shu tartib joriy etilishi mumkin.

"Tasavvur qiling, sizning beshlik guruhingiz" (nomini o`zlari topadilar) ilmiy tadqiqot kemasida turibdi, kema jurnaliga ekipaj a`zolari nomini yozib qo`ying.

Kapitan -.....

Shturman -.....

Gidrolog -.....

Geolog -.....

Biolog -.....

Sizning "....." kemangiz geografik koordinataning 51^0 sh.k. da 0^0 uzoqlikda (atlas-xaritaning tegishli betlariga qarang) turibdi. Devorga osilgan kartadan sizning kemangiz turgan koordinatani topib belgilab qo`ying.

Siz turgan port qanday ataladi?

Javob:.....

U qaysi orolda joylashgan?

Javob:.....

U orol qanday paydo bo`lgan? (Bu savolga javob topishda darslikdan foydalanasiz).

Javob:.....

Orol deb nimaga aytildi?

Javob:.....

Kemangiz portdan chiqib 125 km janubga qarab yo`l yurib ochiq dengizga chiqdi. U arning nomi -

Dengizda sizning kemangiz to`xtagan nuqta 51^0 sh.k. da va 1^0 uzoqlikda. Kemangiz qaysi dengizda ekanligini aniqlang. U dengizning ichidami, yoki chekkasidami? (Bu savolga javobni darslikdan topish mumkin).

Javob:.....

Bu dengiz qaysi okean havzasiga kiradi?

Javob:.....

Sizning kema turgan nuqtani atlas-kartadan belgilab "___" ishorasini qo`ying, devoriy kartada sizning kemangiz turgan joyga belgini siljitib qo`ying. Sizning kemangiz turgan nuqtada dengiz tagi rel`efi qanday?

Javob:.....

Sizning kemangiz turgan joyning sharq tomonida qanday ichki dengiz va suv havzalari bor?

Javob:.....

Suv havzasi deb nimaga aytildi?

Javob:.....

Belgilangan vazifani bajargandan keyin sizning kemangiz shimoli-sharq tomonga qarab 2000 km masofaga yo`l bosdi. So`ng 69^0 sh.k. va 8^0 uzoqlikdagi turar joyga etib keldi (Bu joyni atlas-kartadan topib "___" ishorasini qo`ying. Devoriy kartada esa kema belgisini o`sha erga siljiting). Sizning kemangiz qaysi okeanga chiqib oldi?

Javob:.....

U erda okeanning chuqurligini o`lchash kerak (Okean chuqurligini o`lchash haqida darslikdan ma`lumot oling).

Kemadan okean tubiga yuborilgan xabar 4 sekundda qaytib keldi. Demak, okeanning chuqurligi u erda m. (Javobni chuqurlik shkalasidan tekshiring). Sizning kemangiz ostida okean rel`efi qanday shaklda?

Javob:.....

Sizning kemangiz okean qirg`og`iga qaysi yarim oroldan o`tdi?

Javob:.....

Yarim orol deb nimaga aytildi?

Javob:.....

Belgilangan vazifani bajarib bo`lgandan keyin sizning kemangiz 68^0 sh.k. va 32^0 g`u. dagi o`z portiga qaytib keldi. Port qanday ataladi?

Javob:.....

(Devoriy kartadan belgini ana shu portga siljiting).

U qaysi yarim orolga joylashgan?

Javob:.....

Portga etib kelguncha qanday yo`nalishda, necha km va qaysi dengizlardan o`tib keldi?

Javob:.....

Bu dengiz qaysi tipga kiradi?

Javob:.....

Xush kelibsiz, qadrdon portga!

Kemada suzish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelinganini yozing.

Javob:.....

Kema kapitani: (imzo)

Uyga vazifa:

O`yin tugugandan so`ng, natijalar tahlil qilib chiqiladi. Unda o`yinda alohida jihatlari bilan ajralib turgan o`quvchilar taqdirlanadi, baholanadi.

Bunday o`yinlarning stsenariylarini oldindan tayyor holda o`qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi.

O`quvchilarning yosHLARINI ulg`ayib borishini inobatga olgan holda tanlanayotgan o`yinlarning ham murakkablik darajasi ortib boradi. O`yin davomida o`quvchilar qiynalsa, yoki javob berishda ikkilanish kuzatilsa, darhol o`qituvchi yordamga kelib, adabiyotlar, kartalar, atlaslar, ma`lumotnomalar va boshqa manbalarni tavsiya etishi lozim. Berilgan tavsiyalar asosida o`quvchilarda ishslash ko`nikmasi shakllansa, bu o`qituvchining oldiga qo`yilgan ulkan vazifani bajarilgani demakdir.

Maktabda tabiiy geografiya kurslarini o`qitilishida geografik o`yinlardan tashqari yangi pedagogik texnologiyaning bir qator uslublaridan ham keng foydalanish mumkin. Ulardan mavzularga qarab oldingi bo`limda sanab o`tilgan «Qora quticha», «Olti o`ylagich qalpoqcha», «Barcha omillarni qarash», «Plyus, minus, qiziq», «Savollar romashkasi» kabi uslublar geografiya ta`limini barcha qirralarini ochib berishda yaqindan yordam beradi.

Didaktik o`yinlardan foydalanishning ahamiyati. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining geografiya fani o`qituvchilari o`ziga xos malaka va boy tajribaga egadirlar. Ularning darslarda qiziqarli o`yinlardan foydalanish tajribalari dastlab darsdan bo`sht vaqtlardagi turli tadbirdar, sinfdan tashqari ishlarda namoyon bo`lgan bo`lsa, bugungi kunga kelib, darsning bir qismida, hatto ba`zi pedagoglar tomonidan butun dars davomida qo`llanilmoqda.

O`yinlarga bu qadar e`tiborni ortib ketishiga asosiy sabab, o`quvchilarni fanga qiziqtirish, ularni e`tiborini jalg etish orqali mavzuni o`zlashtirishga, darsda o`zlarini erkin tutishga o`rgatishdir.

O`qituvchilarining fikricha, geografiya darslarida o`yinlar orqali o`quvchilar qiziqishlari ortib boradi, bilimlarni o`zlashtirish jarayonini engillashtiradi, qisqa vaqt ichida sifatli bilim olishga erishiladi.

- Ijodiy mexnat qiladigan o`qituvchi, - deb yozadi L.V.Zankov, -ma`lum darajada ta`lim va tarbiyaning ob`ektiv qonunlariga muvofiq ish ko`radi. Bunda u qisman allaqachon ma`lum bo`lgan nazariy qoidalarga tayanadi, qisman intuiktiv yo`l bilan qay yo`sinda bo`lsada, hali ochilmagan qonunlarni sinab ko`radi.

O`yin o`sib kelayotgan bolalarimizning eng qadimgi tarbiya va ta`lim vositasidan biri bo`lib, bunda kattalar yoshlarga o`z tajribalarini qoldiradilar.

Ta`lim jarayonida didaktik o`yinlardan foydalanib, o`quvchining ikki ijod turi - o`qish va o`yinni birlashtirish mumkin. Bu o`quvchilarni muvaffaqiyatli o`qitish, ularning yosh guruhlari, rivojlanishini yaxshi bilishi kerak. O`quvchi o`zini mакtabda yaxshi tutishi uchun u o`zining o`qishiga to`g`ri baho berishi, boshqalardan yomon emasligiga ishonishi kerak. Agar o`quvchi bilimlarni o`zdashtirishda qiyinchiliklarga duch kelsa, unda mакtabga, o`qishga nisbatan sovuqlik paydo bo`ladi. Darldarda ijodiy o`yinlardan foydalanish dars jarayonini qiziqarli qiladi, ta`lim jarayonida individuallikning hayotiy bo`lishida yordam beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda didaktik o`yinlarning ahamiyati cheksizdir.

Geografiya darslarida o`yinlardan foydalanishning didaktik maqsadlari quyidagilardan iborat:

-oltingan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash;

-yangi sharoitlarda bilim, ko`nikma va malakalardan foydalanish;
 -bilimlarni chuqurlashtirish jarayoni;
 -shaxsiy sifatlarni tarbiyalash: o`z nuqtai nazarini isbotlash. Mas`ullik hissiyoti, davlatimizning tabiiy boyliklariga fuqaro sifatida javobgarlik hissiyoti, Vatanga va jonajon o`lkamizga muhabbat hissiyoti.

O`yindan quyidagi sharoitlarda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin:

1.	O`quv materialining ko`lami va murakkabligi.	Nazariy material, o`quvchilar o`zlashtirishi qiyin bo`lgan mavzular. O`quv materiali amaliy yo`nalishga ega bo`lsa, buni o`yin xolatida ishlab chiqiladi.
2.	Didaktik vazifalarga tayangan holda	O`lkashunoslik materiallari asosida bilimlarni chuqurlashtirish jarayoni. Avval olingan bilimlardan foydalanish.
3.	Tarbiyaviy vazifalarga diqqat-e`tibor qattiq talab qilinadigan holatda	Tabiatga javobgarlik hissiyotini tarbiyalash. Tabiiy boyliklarga aqlan tejamkorlik ruhida tarbiyalash. O`z fikrida turish malakasi.

XULOSA

Geografiya ta`limida o`yinlar texnologiyasi bo`yicha muayyan tajribalar to`plangan. Geograf-o`qituvchilar va uslubiyotchilarning qayd qilishlaricha, o`yinlarning asosiy vazifalari ta`lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi ekanligini ta`kidlaydilar Didaktik o`yinlar o`quvchilarning bir-birlari bilan muomila qila bilishlarini tarbiyalash, so`zlab berishlari, isbotlab, ishonch hosil qilishlari uchun, ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Geografiya ta`limida didaktik o`yinlar o`tkazishda muammoli vaziyat asos bo`lishi haqidagi qoida tasdiqlandi. Bu vazifani xal qilish noma`lumdan-noma`lumga tomon harakat qilishga imkon beradi. Bunda har bir o`quvchining ijodiy imkoniyatlaridan foydalaniladi. O`yinda rolning jamoa (guruh) tarzida bo`lishi didaktik o`yining o`ziga xos farq qiluvchi belgisi hisoblanadi, bu esa o`yining tarbiyaviy imkoniyatini yana ham kuchaytiradi.

Geografiya ta`limini samaradorligini didaktik o`yinlar ta`sir ko`rsatishning muhim belgisi, ta`limni barcha uchun qulay bo`lgan sur`atini ta`minlashdir. O`yin faoliyati o`quvchilarga o`zlariga qulay bo`lgan sur`atda harakat qilishga imkon beradi, bu sur`at ularning faoliyatiga mos keladi. Bundan tashqari, o`yinla rolni o`zi tanlash imkoniyati vujudga keladi, ya`ni majburiylik, majbur qilish elementi barham topgandek bo`ladi. Biroq, o`yining o`quv jarayonidagi katta ahamiyatini ta`kidlaganda, ularni rolini oshirib yubormaslik kerak. Todqiqtolarning ko`rsatishicha, o`yinlar ta`limni tashkil etishning boshqa shakllari bilan birga qo`shib olib borilgandagina o`z vazifalarini yaxshi bajarishlari mumkin. Geografiya darslarida o`yinni muvaffaqiyatli o`tkazish uchun o`yin tuzilishini: vazifalarini, qoidalarini, vaziyatini, harakatlarini, natijalarini yaxshi bilishi zarur. O`yining tarkibiy qirralarini hisobga olish ularni o`tkazish uslubiyotidagi bosqichlarini ajratib ko`rsatish imkonini beradi. Bu bosqichlar o`yinlarning barcha turlari uchun talluqlidir.

O`yinlarning barcha turlari o`rtasidagi bog`liqlik o`yinlarning sekin-asta murakkablashib borishiga qarab - oddiy stol usti o`yinlaridan mazmunli rolli yinlarga tomon borishi zarurligini taqozo etadi. Didaktik o`yinlarni muvaffaqiyatli

o`tkazish uchun maktab o`quvchisining muayyan tayyorgarlik darajasigina emas, shu bilan birga o`yin mazmunidagi muammoli vaziyat bo`lishi ham kerak.

Didaktik o`yinlar imkoniyatlarini tahlil qilish, o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish ta`lim mazmunining o`ziga xosligi tabiiy geografiya kursi uchun o`yinlarning eng maqbul turlarini: sayohat, kompleks ekspeditsiyalar, loyihalarni himoya qilish, matbuot konferentsiyasi, davra suhbati kabi o`yinlarni belgilash imkonini beradi. Ta`lim jarayonida bu o`yinlarni qo`llash o`quvchilarning bilimlari va malakalari sifatiga sezilarli ravishda ta`sir qiladi, fanga bo`lgan barqaror qiziqishni shakllantirishga yordam beradi va o`quv yuklamasini kamaytirishga olib keladi.

Kuzatuv va ilmiy-tajriba ishlaridan shu narsa ma`lum bo`ldiki, qobiliyat darjasasi va o`zlashtirishi turlicha bo`lgan o`quvchilar o`yinlarga bir xilda ijobiy munosabatda bo`lar ekanlar.

Hayot faoliyati havfsizligi va favqulotda vaziyatlarida fuqoralarni muhofaza qilish

O’zbekiston Respublikasi Bazirlar Kengashining 19.07.2011 y. №208 sonli «Xalqning er silkinishlar oqibatida yuzaga keladigan favqulodta vaziyatlarda (ta`biiy va texnogen tu`rdagi) harakat etishda tayarlash kompleks dasturin tasdiqlash haqida»gi qarori, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 22.07.2011 y. №310 sonli buyrugin boschilikga olinib va o’rinlash maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorati buyrugi (25.12.2012 y. №601 D/1) asosida «Hayot qavfsisligi» fani barcha ta’lim yonalishi buyicha talabalarga oquv jarayonida urgatish uchun, magistrlik dissertatsiya ishi va bakalavr mutaxassislik bitiruv ishlarin o’rinlashda fanning huquqiy asoaslari kiritildi. **4) binoan «Hayot faoliyati hafsizligi» fanini** barcha ta’lim yo’nalishlari bo’yicha talabalarga o’quv jarayonida o’rgatish uchun, magistr dissertatsiyasini va bakalavr malakaviy bitiruv ishini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

«Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ximoya qilish ta’minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo’ladi. Har bir kishi o’z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o’z huquqi va erkinliklarini ximoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur» (İ. Karimov. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko’rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg’in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo’jaligi ob’ektlarining barqaror ishlashini ta’minlash hamda halokat o’choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o’z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi. Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg’in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatalar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatlari favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rniда yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rniни bosishi mumkin bo'lgan yirik hajmdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallashi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurban bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralar, usullari, vositalari tizimi, oid – harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergen taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga

etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar tasirini tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagি PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 5 qism va 27 moddadан iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may) – 4 ta bo'lim va 23 moddadан iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OİTS/OİV kasalligining oldini olish sohasidagi davlat ta'minoti, kasallikning oldini olish bo'yicha

faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo'lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo'lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. O`zbekstan Respublikasi MK (1997 jil 27 dekabr) №558-sonli qarori «O`zbekstan Respublikasida favqulodda vaziyatlarni` oldini olish va ularda harakat etishda davlat tizimi haqida»g`i qarori bilan bekor etilib bu qaror qaytadan 2011 yil 24 avgustda O`zbekstan Respublikasi MK №242-sonli «O`zbekstan

Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishning davlat tizimi ishlarin yanada yuksaldirish» haqidagi qarori bilan to`ltirilib qayta ishlandi.

O`zbekstan Respublikasi (2011 jil 19 iyul`) №208-sonli qarori «Xalqni er silkinishlar oqibatida yuzaga kelish mu`mkun bulgan favqulodda vaziyatlarda (ta`biiy va texnogen) harakat etishga u`rgatishning kompleks da`sstu`rin tasdiyiqlash» haqida qarori asosida barcha joylarda favqulodda vaziyatlarda ha`rakat etishnin` kompleks da`sturlari ishlab shig`ildi, oquv mashqulatlari alib borilmaqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko`chish va er ko`chki hodisalari bilan bog`liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora – tadbirlar to`g’risida (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko`chish va er ko`chki hodisalari bilan bog`liq ishlarni o`z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to`g’risida (1996 yil yy aprel, 143 – sonli). Qarorga «O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to`g’risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to`g’risida (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli). Qaror bilan O`zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to`g’risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo`yicha funktsiyalari keltirilgan.

O`zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to`g’risida (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli). Qaror

mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomilashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegegarali turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari tasdiqlash to'g'risida (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o'quv jarayonida talabalarga «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha keng manoda tushunchalar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. T.: «O'zbekiston», 2016. 56-b.
- 2 Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi. T.: «O'zbekiston», 2017. 48 b
- 3 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: «O'zbekiston». 2017. 102 b
- 4 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: «O'zbekiston». 2017. 488 b.
- 5 Karimov. I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
- 6 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-tngilmas kuch. T.: «Ma'naviyat» 2008. 176 b.
- 7 Boshlang`ich ta`lim kontseptsiyasi. «Boshlang`ich ta`lim jurnali», 1998 №6.
- 8 Umumiy o`rta maktabning geografiya darsliklari. 5-6-7-8-9-sinflar uchun.
- 9 Umumiy o`rta ta`limning davlat taolim standarti va o`quv dasturi. Ta`lim taraqqiyoti 3-maxsus son.
- 10 O`zbekiston Respublikasi kadrlarni tayyorlash milliy dasturi. T.: 1997.
- 11 O`zbekiston Respublikasi taolim th`risida o`onun. T.: 1997.
- 12 Abduraqmonov M. va boshqalar. Tabiiy geografiya: qiziqarli dars shakllari. Namangan, 2000 yil.
- 13 Aliqulov A, Hojieva N. O`qituvchi - bosho`aruvchi, o`quvchi - ijrochi. Maorifat gazetasi 2000 yil 1yanvar.
- 14 Atutov P.R. Texnologiya i sovremennoe obrazovanie. -M, Pedagogika, 1996 № 2.
- 15 Djumaboeva F., Ziyamuhamedova U. Ixtiroviy masalalarni echish nazariyasi metodlariga kirish. Andijon, 2002.
- 16 Djumaboeva F. O`qituvchilarini talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga hrgatish. Andijon, 2001 yil.
- 17 Yhldoshev J. Pedagogik innovatsiyalarni `ayotga tadbio` etishning tashkiliy asoslari. «Xalo` taolimi» 1999 №6.
- 18 Kartelp L.N. Tabiiy geografiyadan didaktik materiallar. Toshkent., O`qituvchi, 1991 yil.
- 19 Maksimov N.A. Tabiiy geografiyadan metodik qo`llanma. Toshkent, O`qituvchi, 1991 yil.
- 20 Ma`mudov V.M. Taolimni o`quv elementlari vositasida loyi` alash. "Boshlan`ich taolim" jurnali, 2002, №6, 18-19 betlar.
- 21 Musaev P., O`urbanbonniyozov R. Geografik o`yinlar. Toshkent, O`qituvchi, 1990 yil.
- 22 Nasriddinov D. Tarbiya - keng o`amrovli muammo sifatida. «Xalo` taolimi» 1998 №2 59-62 betlar.
- 23 Novo`e vzglyadi na geograficheskoe obrazovanie. - (pod. Red. V.N.Maksakovskiogo, L.M.Pancheshnikovoy). Moskva, Progress, 1996.
- 24 Pirnazarov R., Ortio`ova G. Geografiya darslarida situatsion o`yinli metodlardan foydalanish. "Geografiya fanining nazariy-amaliy muammolari" mavzuidagi Respublika ilmiy nazariy-amaliy konferentsiya materiallari. Buxoro, 2006.
- 25 Razvitie tvorcheskogo mo`shleniya studentov. Institut otkro`toe obhestvo - fond sodeystviya - Uzbekistan. Uchebno-metodicheskoe posobie. Andijan, 2002.
- 26 Rasulova L., Zokirov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Far`ona, 2002 yil.
- 27 www.google.uz; www.stat.uz; www. tdpu. uz; www; pedagog. uz; www. ziyonet. uz., www.lex.uz; www.bilim.uz; www.gov.uz